



## SHAHARSOZLIK TAHLILI ASOSIDA TARIXIY SHAHARNING BOSH REJASINI LOYIHALASH

MOTKURBONOVA SH.A.

[shairamatkurbanova1@gmail.com](mailto:shairamatkurbanova1@gmail.com)

+998995782767

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola tarixiy shahar bosh rejasini loyihalashda shaharsozlik tahlili, ularning funksiyasi, asosiy masalalari va qator vazifalar yechimining imkoniyatlarini belgilash asoslarini ko'rsatib beradi. Tarixiy shahar hududini loyihalashdagi bir qator asosiy vazifalarning amaliyotda qo'llanilishini to'g'risida fikr yuritiladi.

**KALIT SO'ZLAR:** shahar tuzilishi, Yodgorlik muhofaza zonasi maydoni, hududlashtirish, Ijtimoiy, shaharsozlik, tarixiy-me'moriy, iqtisodiy, qayta tiklash.

Talabalarga mavzuni o'qitish asosida kompyuterdan tarixiy shahar bosh rejasini loyihalash jarayonida quyidagi yechimlarni e'tiborga olish lozim, jumladan:

- yodgorliklarni shahar tuzilishida joylashish prinsipini belgilash va ularning shaharsozlik ahamiyati;
- yodgorlik planirovka tuzilishi xususiyatlarini aniqlash;
- eski va yangi ob'ektlar obrazi o'zaro nisbati;
- yodgorliklarni saqlash, ta'mirlash, foydalanishga moslashtirish va atrof hududni obodonlashtirish kompleks ravishda amalga oshirilishi kerak.



— Дишан калъа муҳофаза хуудуи; — Ичан калъа хуудуи  
— алохица идора этишган хууд.

Turistlarga inshootlarning atroflicha ko'rinishi uchun, shuningdek yodgorlikka asosiy borish yo'lini yo'naltirishda turli nuqtalarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari yodgorlikni shahar muhitida tomosha qilish va idrok etish faqat kunduzi emas,



balki oqshom vaqtida ham, sun'iy va dekorativ yoritish bilan ham hisobga olinishi kerak.

Yodgorlik muhofaza zonasi maydoni quyidagilarga bog'liq holda belgilanadi:

- yodgorlik masshtabiga;
- turli nuqtalardan ko'rinishiga;
- tarixiy fon xarakteri va saqlanishi;
- atrofdagi binolar qiymatiga.

Shahar markaziy qismini bosh rejasi qayta tashkil qilish maqsadida, shahar hududlarini ko'rsatkichlarning kompleksi bo'yicha baholash asosida amalga oshiriladigan hududning maxsus hududlashtirilishi (zonalashtirilishi) juda muhim. Bunda bir xil xususiyat kompleksiga ega qurilgan hududlar rekonstruksiyaning u yoki bu rejimi zonalariga birlashadi.

Tarixiy shahar bosh rejasini loyihalash davomida kompyuter texnologiyasidan foydalanishda asosiy yordamchi mezonlar qatoriga quyidagilar kiradi:

- **Ijtimoiy.** Umumshahar markaz vazifasi darajasi va "kunduzgi" aholi me'yori; aholi strukturasi va yashash qulayligi; joylashish xususiyatlari; madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish darajasi; sanitar-gigienik ko'rsatkichlar.

- **Shaharsozlik.** Shahar, ayniqsa markazning zamonaviy tuzilishida rayonlarning o'rni va ahamiyati; fond va hududlarning funksional foydalanilishi; tabiiy va planirovka vaziyati xususiyatlari; atrof bilan planirovka va transport o'zaro aloqalari; shaharsozlik kompozitsiyalarining tugallanganligi; me'morchilik va tabiatning o'zaro aloqasi.

- **Tarixiy-me'moriy.** Planirovka va qurilish qiymati; me'moriy majmualar va yodgorliklarning shahar tarixiy va zamonaviy qiyofasi shakllanishidagi ahamiyati.

- **Iqtisodiy.** Hududdan foydalanish samaradorligi; turar joy binolari eski rayonlarining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari; turar joy va jamoat fondi, obodonlashtirish, muhandislik jihozlanish holati va qiymati.

- Bosh plan yakuniy muddati va uzoqroq muddatli perspektiva vaqtidagi bu ko'rsatkichlarning o'zgarishi belgilovchi omil hisoblanadi. Xulosa sifatida, rekonstruksiya tartibi xududning kelajakdagi rivojlanishi va aniq shaharsozlik vaziyatiga bog'liq rekonstruktiv tadbirlarni o'tkazish imkoniyatiga muvofiq o'rnatiladi.



Tarixiy shaharlar markazi rekonstruksiya, ya'ni, qayta tiklash esa - davomiy va tabiiy jarayon, har bir bosqich quyidagi vaziyatlarga olib boradigan yangi talablarni ilgari suradi:

- shahar turar joy muhitini tubdan yaxshilash, turar joy muammosi yechimi;
- tashkilot va muassasalar, jamoat binolariga xizmat ko'rsatuvchi nomenklaturani kattalashtirish;
- xizmat ko'rsatish markazlarini aholi talabini qondira oladigan o'zaro bog'langan planirovka sistemasida tashkil qilish;
- me'moriy yodgorliklarni zamonaviy qurilishlarga kiritgan holda saqlash, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va ulardan keng foydalanish;
- shahar magistrallarini va markazga tutashuvchi ko'chalarni qayta qurish;
- transport va piyoda harakatlarini ajratish;
- muhandislik obodonlashuvi sistemalarini rekonstruksiya qilish;
- aholi turmushining maishiy va sanitar-gigienik sharoitlarini yaxshilash

Ijtimoiy, estetik, amaliy omillar o'zaro bog'liq, bir-birini to'ldiradi va rivojlantiradi, yodgorlik tarixiy, badiiy va moddiy qiymatining saqlanishiga yordam beradi.

Qulay variantni tanlashda quyidagi pozitsiyalar joiz:

a) yodgorliklardan foydalanish xarakteri uning joylashuvi va funksional zonalashuvi bilan bog'langan bo'lishi kerak, ular yodgorlikning shaharsozlik elementlari umumiy sistemasida joylashuvini qanday belgilasa, atrof muhit bilan funksional aloqalarini ham xuddi shunday belgilaydi;

b) yangi funksional vazifa yodgorlikning fazoviy tuzilishiga (bino hajmi) joylashishi kerak, xonalarning o'lchamlari va o'zaro joylashishi, yodgorlik me'moriy fazosining bo'linish ritmi analogik yangi funksional va planirovka guruhlariga muvofiq kelishi kerak;

v) yangi vazifa yodgorlik konstruksiyalari va ustki qoplamasi (vibratsiya, noxush namlik - harorat rejimi) saqlanishiga noxush ta'sir ko'rsatmasligi kerak;

g) yodgorlik yangi vazifasi va badiiy-obrazli qurilishi badiiy qiymatlarni buzmaganda holda mos tushishi kerak (yuqori tarixiy-badiiy va me'moriy-shaharsozlik ahamiyatidagi binolarda alohida ahamiyatdagi amaliy, xo'jalik korxonalarini joylashtirishga yo'l qo'yib bo'lmaydi);



d) yodgorlikdan foydalanish u bilan har tomonlama tanishishga xalaqit bermasligi kerak.

Shunday qilib, tarixiy shahar ehtiyojlaridan va me'moriy yodgorliklar fondlarining borligidan kelib chiqib, barcha yodgorliklarning qator toifalari uchun ulardan foydalanishda yangi vazifalar tanlashni aniqlash mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Аҳмедов Муҳаммад Қосимович “Ўрта Осиё Меъморчилиги Тарихи”  
Тошкент "Ўзбекистон "1995
2. Салимов О.М. “Архитектура ёдгорликларининг муҳофаза худудларини ташкил этиш усуллари” Ўқув қўлланма.Тошкент – 2013.
3. <https://www.google.com/maps/place/Xiva>